



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

FATMA SHENGIL SHE'RIYATIDA RAMZIY OBRAZLAR VA FALSAFIY MAZMUN

Arziqulova Sayohat

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy turk adabiyotining yetuk vakili shoira Fatma Shengilning she'riy asarlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida shoiraning "Qora suv" nomli to'plami haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari "Ikki marta bir qo'shiq" nomli she'ri tahlilga tortilib, uning badiiy-estetik xususiyati, ramziy-allegorik shakli va falsafiy-diniy qatlamlari ko'rib chiqiladi. Izlanishlar natijasida shoira she'riyatining milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi, islomiy dunyoqarash elementlarining ijodiga ta'siri, shuningdek, she'rlarida Sharq klassik adabiyoti an'analarning zamonaviy poetik shakllarda namoyon bo'lishi aniqlangan. Shoira asarlarida inson hayoti va uning taqdiri, axloqiy poklik va gunohkorlik, imon va o'tkinchi dunyo ne'matlariga berilganlik, ma'naviy komillik kabi abadiy mavzular o'ziga xos poetik talqinda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fatma Shengil, zamonaviy turk she'riyati, ramziy-allegorik obrazlar, falsafiy lirika, diniy motivlar, hayot va o'lim konsepsiyasi, badiiy-estetik tahlil, ma'naviy qadriyatlar.

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ И ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ В ПОЭЗИИ ФАТМЫ ШЕНГИЛ

Арзикулова Саёхат

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, базовый докторант

Аннотация

Статья посвящена анализу поэтических произведений представительницы современной турецкой литературы, поэтессы Фатмы Шенгил. В рамках исследования рассматриваются сборник «Чёрная вода» и стихотворение «Дважды одна песня», анализируются их художественно-эстетические особенности, символично-аллегорическая форма и философско-религиозные слои. В результате установлена связь творчества поэтессы с национально-духовными ценностями, влияние исламского мировоззрения, а также проявление традиций восточной классической литературы в современных поэтических формах. Освещаются такие вечные темы, как жизнь и судьба человека, нравственная чистота и греховность, вера и привязанность к бrenным благам, духовное совершенство.

Ключевые слова: Фатма Шенгил, современная турецкая поэзия, символично-аллегорические образы, философская лирика, религиозные мотивы, концепция жизни и смерти, художественно-эстетический анализ, духовные ценности..

SYMBOLIC IMAGES AND PHILOSOPHICAL CONTENT IN THE POETRY OF FATMA SHENGIL

Arziqulova Sayohat

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Basic Doctoral Student

Abstract

This article is devoted to the analysis of the poetic works of Fatma Shengil, a prominent representative of modern Turkish literature. The study examines the collection “Black Water” and the poem “Twice One Song,” analyzing their aesthetic features, symbolic-allegorical forms, and philosophical-religious layers. The findings reveal the connection of the poet’s творчество with national and spiritual values, the influence of Islamic worldview elements, and the manifestation of Eastern classical literary traditions in modern poetic forms. The works explore eternal themes such as human life and destiny, moral purity and sinfulness, faith and attachment to worldly pleasures, and spiritual perfection.

Keywords: Fatma Shengil, modern Turkish poetry, symbolic-allegorical images, philosophical lyrics, religious motifs, concept of life and death, aesthetic analysis, spiritual values.

Zamonaviy turk adabiyoti jahon she’riyati kontekstida o’zining ko’p qirrali mazmuni va shakliy xilma-xilligi bilan alohida o’rin egallagan. Adabiy jarayonda an’anaviy poetik me’yorlar bilan modern yo’nalishlar uyg’unligi, milliy-madaniy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarning o’zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira Fatma Shengil (Fatma Şengül) ushbu adabiy yo’nalishning ko’zga ko’ringan namoyandalari qatoriga kiradi. Uning ijodi chuqur diniy-falsafiy mazmun, ramziy obrazlar tizimi hamda zamonaviy she’riyatning eng yangi poetik shakllarini o’zida qamraganligi bilan ajralib turadi. Shoira ijodi tahliliga kirishishdan avval uning biografiyasiga biroz to’xtalishni lozim topdik.

Fatma Shengul 1970-yilda Turkiyaning Eskişehir shahrida tug’ilgan. Boshlang’ich va o’rta ta’limni shu yerda tamomlagan bo’lajak shoira, Onado’li universiteti Farmatsevtika fakultetida o’qiydi. Garchi ijodi va faoliyati ayri sohalar bo’lsa ham shoira she’r va hikoyalar yozishdan to’xtamaydi. Uning ijod namunalari “Dolunay” (“To’lin oy”), “Albatros”, “Kardelen” (“Qorbo’ron guli”), “Dergâh” (“Dargoh”) va “Hece” (“Hijo”) jurnallarida nashr etilgan. Fatma Shengulning “Kadın Oradaydı” (“Ayol u yerdaydı”) nomli kitobida Hazrat Fotima onamizning hayoti hikoya qilinadi. Bolalar uchun yozgan “Gelincik Şarkısı” (“Lola qo’shig’i”) asari nemis tiliga tarjima qilinib, “Das Klatschmohn Lied” nomi bilan nashr etilgan. Shoiraning shu kungangacha “Qora suv” (Su Siyah. 1997), “Farhod va Shirin: Ishq Hu” (Ferhat ile Şirin: Aşk Hû. 2000), “Hovlining shovqini” (Avlunun Uğultusu. 2002), “Lola qo’shig’i” (Gelincik Şarkısı. 2006), “Ayt, Sukut” (Söyle Sessizlik. 2013), “Uchsin ketsin” (“Uçsun varsın”) kabi to’plamlari kitobxonlar e’tiboriga havola etilgan. Dastlabki to’plami 1997-yilda amalga oshirilgan Fatma Shengilning “Su Siyah” (“Qora suv”) kitobi yaqinda o’quvchisi bilan yana qarshilashdi. F.Shengilning bu to’plamidagi she’rlari ruhida lirik qahramon va ijodkorning ovozi uyg’unlashgan. Shoiraning qalbidan chiqib kalimalarga jo bo’layotgan sesi tobora kengayib halqa shaklida butun tinglovchisini qamrab oluvchi va ta’sir etuvchi kuchga ega. Shoira o’zi ifodalamoqchi bo’lgan g’oyasini bilib she’rini yaratadigan bo’lsa, uning ovozi ham masofasiz bir iqlimga cho’zilib ketadi. F.Shengilning she’rini o’qiyotganda, o’quvchi o’zini doimo she’r ichida his qiladi. Chunki shoira o’ziga eng xos muhatob sifatida tanlagan o’quvchisi bilan doimo ichki dialog holatida bo’ladi. U bilan suhbatlashadi, dardlashadi va unga sirlarini aytadi. “Salomning gul hidi bor she’rlarda” deya murojaat qilayotgan shoira “Selamun Aleyke” (“Assalamun alayka”) she’rida “Ismingiz, salomingiz so’zimizning gul hidi”deb boshlaydi. Aslida muallif o’z misralarida salomlarning eng go’zalini eng go’zal zotga yuborib boshlaydi. She’rining butun borlig’ini qasida havosida, gul hidi bilan “jihozlagan”, ijodkor she’r eshigidan ichkariga kutilayotganga yuborilgan chuqur hasrat to’la intizor maktubi kabi kirish qiladi.

“va sahifalar qurib qoldi suvsiz

g’urbatdaymiz efendimiz”[1. 1997]

Shoiraning so’zlarida chuqur hasrat va intizor ohangi seziladi. O’z holatidan uyat va hijolat bo’lish bilan birga muallifda Haq uchun to’liq taslimiyat ham namoyon bo’ladi. Misralar orasida oqib turgan suv metaforasi shoira qalbining sochilganligi, ichga yo’налgan ma’naviy

suvdir. Aslida qayg‘u va hasratning rangi qora. Inson qalbiga boqqanida qayg‘uni ko‘rsa, sharqirab oqib turgan suvlar ham qora rangda oqadi. Shoira bu haqida shunday yozadi:

“baqirardi qo‘llarim, voy qora”[1. 1997]

F.Shengilning she‘rlarida o‘ziga xos til va ichki kechinmaning samimiy ovozi ustunlik qiladi. Shoira salomni jumalarning eng avvaliga qo‘yishi ham mana shu ichki samimiylarning ifodasidir. Chin qalbdan qilingan duo shoiradan chiqib butun dunyoga tarqalib, jamiyati musulmon dunyosi birlikda “Omiyn” demasi kerak bo‘lgan fursat quyidagi misralarda ifodalanadi:

“Ollohim, meni marhamat qil, gunohlarimdan pokla”[1.1997]

Ushbu misrada tasavvufiy she‘riyatga xos bir qator xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Birinchidan, g‘urbat Allohdan uzoqlikni anglatuvchi ramziy obraz sifatida keltiriladi. Sahifalarning qurib qolishi esa ma‘naviy chanqoqlik, ruhiy susayish timsoli sifatida ifodalanadi. Ikkinchidan, suv metaforasi poklanish, hayot, ma‘naviyat ramzi sifatida tasvirlangan. Zotan suvning ichdan sochilishi ham ichki ma‘naviy jarayonlarni anglatadi. Uchinchidan, qora rang qayg‘u, hasrat va dard-u alam ramzi sifatida shoira tilidan qayta-qayta takrorlanadi.

Ko‘rinadiki, F.Shengilning o‘ziga xos uslubi shundan iboratki, u dunyoviy dardlarni ilohiy murojaat bilan bog‘laydi. Misradagi qo‘llarning “baqirishi” tasviri jonlantirish(tashhis) san‘atining go‘zal namunasi bo‘lib, jismoniy va ma‘naviy azob ifodasini tasvirlaydi va dardning eng chuqur qatlamlarini ochib beradi. Ayni shu xususiyatlar shoiraning she‘riy tili sodda bo‘lsa-da, ma‘nosi qalbning eng chuqur yerlariga yetib borishini ifodalaydi. U murakkab falsafiy fikrlarni oddiy, tushunarli obrazlar orqali ifodalaydi. Shoira asarlarida Sharq klassik adabiyoti an‘analari zamonaviy she‘riyatning poetik shakllari bilan sintezlashadi. Uning she‘rlarida inson ruhiy olami, hayot va o‘lim falsafasi, ma‘naviy kamolot izlanishlari, imon va e‘tiqod masalalari chuqur falsafiy yo‘sinda lirik talqin etiladi. Ramziy obrazlar, metonimiya, tashbeh va metafora kabi badiiy-ifoda vositalarining mohirona qo‘llanishi she‘rlarda ko‘p ma‘nolilikni yuzaga keltirish bilan birga plyuralizm hodisasini yaratadi. Shoiraning “Ikki marta bir qo‘shiq” she‘rida inson bu foni dunyoda yaxshi nomi va ezgu ishlari sabab abadiy qolishi mumkinligi ifodalanadi. She‘rning markaziy g‘oyasi ham inson o‘lmasligi emas, balki uning insoniyatga qoldirgan ma‘naviy merosi va yaxshi nomining ahamiyatidir degan xulosaga undaydi:

“Bu dunyoda qo‘shig‘i qolgan mangu yashaydi janob,
O‘limi yaxshiroqdir bunday insonlarning”[2. 2010]

Shoira yaxshi amallarni “havoga mixlangan inju donalari” deb tasvirlaydi va bu poetik tasvir orqali ma‘naviy qadriyatlarining abadiy ahamiyatiga ishora qiladi. Moddiy boyliklar to‘plashga umrini sarflagan kishilarga murojaat qilib, ularning aslida hech narsa qoldirmaganligini bildirib, “qo‘shig‘i qolgan g‘olibdir” degan fikr ilgari suriladi.

She‘rning keyingi qismlarida hayotning eng muqarrar haqiqati - o‘lim falsafasi ko‘rib chiqiladi. “O‘lim o‘ldiradi, suv tiriltiradi” misralarida hayotning boshlanishi va tugashi kontrast qo‘yiladi. Tabiat hodisalari hayot va o‘limning ramziy ko‘rinishlari sifatida namoyish etiladi.

“Asl aynimaydi, asal buzilmaydi” degan tabiat qonuniyati orqali shoira islomiy ta‘limotlarga murojaat qilarkan, bu yerda aytilgan fikrni “Qalbida zig‘ir donasicha bo‘lsa-da imoni bo‘lgan bandani Alloh gunohlarini kechiradi”[8] degan hadisi sharif bilan asoslaydi. Mo‘min bandaning asosiy belgisi bu uning imonidir. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida birinchi maqolatni imon masalasiga bag‘ishlab,

“Kimki jahon ahlida inson erur,

Bilki nishoni anga imon erur”[3. 2006.][Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 74.] degan xulosaga keladi. Demak, “asl insonlar” tushunchasi mo‘min, Allohning borligi va birligiga imon keltiruvchi shaxslarni nazarda tutadi.

She‘rda ramziy ifoda sifatida “samoda qurilgan shahar” obrazi keltiriladi:

“Samoda qurilgan shaharni sevgan g‘olibdir dunyoda”.

Bu mo‘min kishining Allohning roziligiga erishish, jannatga yetishish orzusi va Allohning jamolini ko‘rish istagini anglatadi. Shoira mangu qo‘shiqqa erishishning yo‘li Allohning bergan sinovlariga sabr-toqat va shukr qilishdan, “yalang‘och qo‘llarini o‘qlarga tutish”dan boshlanishini ta’kidlaydi. Bu xususda adabiyotshunos olim Dilnavoz Yusupovanning ““Hayrat ul-abror” dostoni haqida. Dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” nomli maqolasida shunday deydi: “Alisher Navoiy “Kimdaki iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko‘rsatib o‘tadi:

Bas ani inson atag‘il beriyo,

Kim ishidur sabr ila shukru hayo.[Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 74.

]”[3. 2006]

Ya’ni: Sen shunday odamni to‘g‘ri, riyosiz deb bilgin, qachonki u sabr bilan, shukru hayo bilan ish ko‘rsa. Darhaqiqat, insonning hayot deb atalgan bu olamda yuksak ma’naviyatli shaxs deya tan olinishi eng murakkab va mushkul ishdir. Bu nomga sazovor bo‘lish uchun shoir nazdida insonda, eng avvalo, sabr bo‘lishi lozim.

She’r o‘limning aslida yomon narsa emasligi, u bandalarni bir-biridan ajratsa ham, jasadni tuproq bilan, ruhni Alloh bilan qovushtiruvchi vosita ekanligi haqidagi fikr bilan yakunlanadi:

“Avval men o‘lay,

Yana bir marta,

Chunki oldin o‘lgan g‘alaba qozonadi.”[2. 2010][So‘yla]

Shoira ushbu misralar orqali Imom G‘azzoliyning “Ihyo-ul umid-din” asaridagi ta’limotlarga murojaat qiladi. Oysha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadisda “bir kecha-kunduzda o‘limni yigirma mahal yod etgan banda shahidlar bilan birga tiriladi”[[G‘azzoliy. Ihyo ulumid-din. O‘limni eslash kitobi. Toshkent: Movarounnahr, 2008. 384 b.], deyiladi. O‘limni eslash insonni oxiratga tayyorlaydi, yolg‘on dunyodan uzoqlashtiradi. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning “O‘lim mo‘minga tuhfadir”(Abdulloh ibn Umardan Ibn Abu Dunyo, Tabaroniy va Hokim rivoyati)[4. 2008] hadisi ham yuqoridagi fikrlarni asoslaydi.

Shoira F.Sengil ushbu she’rida ramzlar, metafora va metonimiz hodisalarini juda chiroyli shaklda qo‘llagan. Xususan, turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan qadriyat - bosh kiyim (do‘ppi) orqali metonimiya san‘atining namunasini yaratgan:

“Do‘ppimni teskari aylantirib yerga qo‘yaman.”[2. 2010]

Turk tilida "başlık" so‘zi “bosh kiyim” yoki “dubulg‘a” ma’nosida qo‘llanadi. Barcha turkiy xalqlarda bosh kiyimning milliy-madaniy ahamiyati katta. “Do‘ppimni yerga qo‘yaman” iborasida o‘z boshini nazarda tutib, o‘lim haq ekanligi, Allohning qadariga rozilikning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, shoira she’rlarida dunyoda o‘zgarmas bir qonuniyat mavjud: “Tug‘ilish bor, demak o‘lim ham bor”. Bu qonuniyatni Alloh taolo tartib etgan. Faqat U “tiriltiradi va o‘ldiradi. Ammo O‘zi tirikdir, o‘lmaydi” (Kalimayi tavhid). Inson bu dunyoga Allohning sinovlaridan o‘tish uchun keladi. Umri davomida qilgan amallari tufayli mangu yashaydi yoki tubsiz zulmatga g‘arq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviylik va an’ana o‘rtasidagi muloqot turk adabiyotida hanuzgacha davom etmoqda. Bu boy meros, Tanpinarning melankolik izlanishlaridan tortib Atayning ironik nutqigacha, Safaning didaktik pozitsiyasidan zamonaviy ijodkorlarning postmodern yondashuvlarigacha, turk identiteti muttasil ravishda qayta belgilanadigan dinamik jarayonning estetik ifodasidir[5.][Uzanan Köprü. Türk Edebiyatında Modernite ve Gelenek Çatışması: Geçmişten Geleceğe Uzanan Köprü].

Shoira butun asarlarida ramzlar va sirli metaforalardan mohirona foydalanadi. Uning she’rlari zamonaviy shakl xususiyatlariga ega: bosh harflardan foydalanilmaydi, qofiya va vazn qoliplari inkor qilinadi. Biroq bu shakl xususiyatlari mazmunning chuqurligiga putur

yetkazmaydi, aksincha, shoiraning ichki his-tuyg'ularini yanada jonli ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan she'rlarda ramziy obrazlar tizimi (suv, qora, qo'shiq, do'ppi) falsafiy fikrlarni yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shoir Sharq klassik adabiyoti an'analari, islomiy tafakkur va zamonaviy she'riyat usullarini uyg'un qo'llash orqali o'ziga xos uslubni yaratgan. Uning ijodida hayot va o'lim, gunoh va poklik, mo'minlik va dunyoga hirs qo'yish, ezgulik va jaholat kabi abadiy mavzular chuqur falsafiy talqinda yoritilgan.

F.Shengil she'riyati zamonaviy turk adabiyotining boy an'alarini davom ettirish bilan birga, o'ziga xos modernistik yondashuvlar, yangicha tafakkur orqali zamonaviy poetik ifoda usullarini taqdim etadi. Uning she'rlari o'quvchini chuqur tafakkurga, hayot mohiyati haqida mulohaza yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sengul F. Su Sihah. Istanbul: Okur Kitaplığı 2020. 72 s.
2. Sengul F. Söyle Sesizlik. Istanbul: Okur Kitaplığı, 2015. 88 s.
3. Navoiy A. Hayrat ul-abror. - Toshkent: G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. 464 b.
4. G'azzoliy Abu Homid Muhammad. Ihyou ulumid-din. O'limni eslash kitobi. Toshkent: Movarounnahr, 2008. 384 b.
5. Uzanan Köprü. Türk Edebiyatında Modernite ve Gelenek Çatışması: Geçmişten Geleceğe Uzanan Köprü